

Date: 25th April-2025

**O‘SMIRLARGA NISBATAN SODIR ETILAYOTGAN ZO‘RAVONLIK VA
ZO‘RAVONLIK NAZARIYALARI TAHLILI**



Yusupova Sevara

O‘zbekiston Milliy Universiteti o‘qituvchisi

Imomxasanova Go‘zal

O‘zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarga, o‘smirlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo‘ravonlikning turlari, kelib chiqish sabablari, ularni oldini olishda O‘zbekiston Respublikasidagi qonunchilik asoslarini mohiyati, zo‘ravonlik tushunchasining bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri ekanligi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bolalar, o‘smirlar, zo‘ravonlik, jismoniy, jinsiy, psixologik, emotsiyonal, kiber zo‘ravonlik, nopol muomala, jamiyat, oila, integratsiya.

Har bir jamiyatning kelajagi unda tarbiyalanib voyaga yetayotgan bolalar, o‘smirlar va yoshlarga bog‘liq. Shu boisdan mamlakatlarda olib borilayotgan islohotlar, yangiliklar, dasturlar va yana ko‘plab ishlar ularning kelajagi va eng yaxshi manfaatlari uchundir. Lekin, ushbu toifa vakillari voyaga yetib ulg‘ayayotgan davrda turli xil qiyinchiliklar-u, zo‘ravonliklarga duch keladi.

Inson hayotida sodir bo‘layotgan har bir jarayon, voqeа va hodisalar uning ruhiyatiga, ijtimoiy hayotidagi faolligiga ham ta’sir qiladi. Ayniqsa, bolalar, o‘smirlar va yoshlarga. Ularning integratsiyasi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan sharoitlar yuqori darajada muhimdir. Agar ular zo‘ravonlikka duch kelsa va uning qurbaniga aylansa, bu ularga noxush va fojeyali oqibatlarga olib kelishi mumkin. Har bir inson individualdir va yuzaga kelayotgan jarayonlar ham turlicha ta’sir etadi.

Zo‘ravonlik – bu shaxsga yoki guruhlarga nisbatan jismoniy, psixologik, iqtisodiy yoki ijtimoiy zarar yetkazish yoki bosim o‘tkazish shaklidagi harakatlar majmuasidir. Ushbu tushuncha jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unga qarshi kurashish chorralari ham har xil yondashuvlar asosida shakllanib kelgan. Bolalar va yoshlarga nisbatan zo‘ravonlikning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ularga nisbatan zo‘ravonlik jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan global muammoga aylangan. Bugungi kunda o‘smirlarga nisbatan zo‘ravonlikning turlariga quyidagilarni kiritib o‘tishimiz mumkin: psixologik, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy, emotsiyonal va kiberzo‘ravonlik.

Ushbu zo‘ravonlik turlari oilada ota-onalar, qarindoshlar tarafidan, do‘stlari, sinfdoshlari yoki boshqa begona voyaga yetgan shaxslar tomonidan amalga oshirilayapti. Zo‘ravonlikka duch kelgan bolalar va o‘smirlar toifalari rivojlanishda mustaqil qaror qabul qilishda va hayotda o‘z o‘rnini topishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu boisdan bolalarga va o‘smirlarga nisbatan zo‘ravonlik masalasi muhim va dolzarb sanaladi.

Date: 25th April-2025



Zo‘ravonlikka qarshi kurashish va uni oldini olish muhim va dolzarb sanaladi. Islom dinida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qat’iyan qarshi bo‘lgan va ularga hurmat, himoya vaadolatda bo‘lish alohida ta’kidlanadi. Islomda bolalarni himoya qilish, ular uchun huquqiy va ijtimoiy himoya mexanizmlarini ta’minalash haqida ko‘plab oyatlar va hadislar mavjud. Masalan, Quroni Karimning Tahrim surasi, 6-oyat⁸ “Ey imon keltirganlar! O‘zlariningizni va oila a’zolariningizni yoqilg‘isi odamlar va toshlar bo‘lgan do‘zaxdan saqlang! Unda (Allohning buyrug‘iga) bo‘ysunmaydigan, faqat buyurilgan ishni bajarayotgan, g‘azabli, qattiqqa‘l farishtalar bo‘ladi”. Ushbu oyatda Allah taolo har bir imon egasini, xususan ota-onalarni ogohlantirib, nafaqat o‘zini, balki oila a’zolarini, jumladan farzandlarini ham azobdan asrashga chaqirmaqda. Bu chaqiriq shunchaki diniy amallarni ado etish bilangina emas, balki o‘z oilasida ma’naviy va axloqiy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshadi. O‘smyrlar shaxsining shakllanishi, ularning psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvori ko‘p jihatdan oiladagi muhitga bog‘liq. Agar ota-onalar zo‘ravonlik, e’tiborsizlik yoki befarqlik yo‘li bilan farzandlariga muomala qilsalar, bu ularning ruhiyatida chuqur salbiy iz qoldiradi. Natijada bunday o‘smyrlar o‘z tengdoshlariga yoki jamiyatga nisbatan tajovuzkor, befarq yoki injiq bo‘lib ulg‘ayishi mumkin.

Shu bois, mazkur oyat har bir ota-onaga ogohlantirish bo‘lib xizmat qiladi: bolaga faqatgina moddiy emas, balki ma’naviy va psixologik g‘amxo‘rlik ham zarur. Farzand tarbiyasida mehr, sabr va tushunish ustuvor bo‘lishi lozim. Zo‘ravonlikka asoslangan munosabat nafaqat dunyoda, balki oxiratda ham jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, bu oyatning mazmuni o‘smyrlar orasida zo‘ravonlikni oldini olishda oila tarbiyasining hal qiluvchi o‘ringa ega ekanligini isbotlab beradi. Ota-onaning vazifasi faqat jazolash emas, balki bolani tushunish, eshitish va to‘g‘ri yo‘lga boshlashdir. Ana shundagina jamiyatda sog‘lom, ma’naviyatli va zo‘ravonlikdan yiroq avlod kamol topadi.

Qolaversa, ko‘plab olimlar zo‘ravonlik bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni amalgalashirgan va ularning sa'y- harakatlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Sotsiolog olim E.Durkheimning⁹ “anomiya” nazariyasiga ko‘ra, “ijtimoiy tartib va normalarning buzilishi jinoyatchilik va zo‘ravonlik holatlarining ortishiga olib keladi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy beqarorlik, axloqiy tanazzul, ijtimoiy nazoratning susayishi va shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Natijada, yoshlarda ijtimoiy me’yor va qadriyatlarga nisbatan befarqlik shakllanadi hamda deviant xatti-harakatlarning kuchayishiga zamin yaratilishi mumkin. E.Durkheimning anomiya tushunchasini rivojlantirib, insonlar jamiyatda qabul qilingan maqsadlarga qonuniy yo‘llar bilan erisha olmasa, muqobil, ba’zan noqonuniy yoki zo‘ravonlikka asoslangan usullarga murojaat qilish ehtimoli oshishini ta’kidlagan. Shu nuqtayi nazardan, bugungi jamiyatda zo‘ravonlik (bullying) kabi hodisalarni tushunishda anomiya nazariyasi muhim tushuncha bo‘lib xizmat qiladi deya fikr yuritgan.

⁸ «Қуръони Карим» маъноларининг таржима ва тафсири. Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2004 й. Таржима ва тафсир муаллифи: Абдулазиз Мансур.

⁹ Émile Durkheim. “The Rules of Sociological Method” 8th edition, trans. Sarah A. Solovay and John M. Mueller, ed. George E. G. fatlin (1938, 1964 edition), pp. 13.

Date: 25th April-2025



Psixolog A.Bandura esa o‘zining “ijtimoiy o‘rganish” nazariyasi doirasida zo‘ravonlikni mustahkamlanadigan xulq-atvor sifatida tushuntiradi, A.Bandura – “Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”ga ko‘ra, insonlar boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularni o‘zlashtiradi. Zo‘ravonlik ham atrofdagilar (masalan, ota-onas, do‘stlar, media qahramonlari) orqali o‘rganiladi va agar bu xatti-harakat mukofotlansa yoki jazolanmasa, u mustahkamlanadi¹⁰.

A.Banduraning ushbu “ijtimoiy o‘rganish” nazariyasiga ko‘ra, “zo‘ravonlik ijtimoiy muhitda kuzatilgan tajribalar asosida shakllanadi, ya’ni odamlar ko‘pincha o‘zlari guvoh bo‘lgan zo‘ravonlik holatlardan xulosa chiqarib, ushbu xatti-harakatlarni o‘zlashtiradilar” deb izohlaydi.

Sotsiolog R. Mertonning “deviant xulq-atvor” nazariyasida esa zo‘ravonlik jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlik natijasida yuzaga kelishi mumkinligi ta’kidlanadi. Mertonning fikricha, jamiyat tomonidan belgilangan muvaffaqiyat mezonlariga erishish imkoniyatining teng taqsimlanmagani ayrim ijtimoiy qatlamlarning norozilik, tushkunlik va ijtimoiy bosim ostida qolishiga olib keladi. Bu esa shaxslarni muqobil yo‘l – ya’ni ijtimoiy me’yorlardan og‘ish, jinoyatchilik yoki zo‘ravonlik kabi deviant xatti-harakatlarga moyil qiladi. Uning anomiya nazariyasiga ko‘ra, jamiyatdagi madaniy belgilangan maqsadlar va ularga erishishning qonuniy vositalari o‘rtasida sezilarli tafovut bo‘lsa, bu ijtimoiy buzilishlarga, jumladan, zo‘ravonlik va huquqbazarliklarga olib kelishi mumkin¹¹.

K.Lorens nazariyasi esa ikki omilga asoslangan. Tajovuzkorlik manbalariga mexanistik qarash va tajovuzkorlik hayotni himoya qilishga xizmat qiladi ya’ni bu shaxs va butun insoniyatning omon qolishiga hissa qo‘sadi. K.Lorensning g‘oyalariga ko‘ra, inson tajovuzkorligi asosan ba’zi energiya manbalariga ega; shunga qaramay, bu tashqi stimulga reaksiya natijasida kelib chiqishi shart emas. “Odamlar juda xavfli mavjudotlar emas, tabiatan ular yomon qurollangan va hayvonlarga qaraganda o‘z turlariga nisbatan ko‘proq zo‘ravonlik qilishadi”¹² degan fikrni ilgari surgan.

K. Lorensning tajovuzkorlik nazariyasiga ko‘ra, insonning tajovuzkorligi tabiiy jarayon bo‘lib, ba’zi ichki energiya manbalariga asoslanadi. Ammo bu tajovuzkorlik har doim tashqi stimullarga javoban yuzaga kelishi shart emas. Lorens shuningdek, inson tabiatan xavfli mavjudot emasligini, ammo boshqa turlarga nisbatan ko‘proq zo‘ravonlik qilishga moyilligini ta’kidlaydi. Nazariya shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlikning oldini olish uchun insondagi tajovuzkorlik energiyasini konstruktiv yo‘nalishga burish muhim. O’smirlar orasida zo‘ravonlikni kamaytirish uchun ularning hissiy energiyasini ijtimoiy foydali faoliyatlarga yo‘naltirish zarur.

¹⁰ Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия : Изучение влияния воспитания и семейных отношений / Альберт Бандура, Ричард Уолтерс; Пер. с англ. Ю. Брянцевой, Б. Красовского. — М. : Апрель Пресс : ЭКСМО-Пресс, 2000.— 509 с. (Психология. XX век); ISBN 5-04-004214-0

¹¹ Мerton Р. Социальная структура и аномия //Социология преступности (Современные буржуазные теории).Пер. с фр. Е.А. Самарской. — Москва: Прогресс, 1966. — С. 299-313.

¹² N.M.Latipova, X.O.Ziyayeva Zo‘ravonlikka uchragan ayollar va bolalar bilan ijtimoiy ish profllaktikasi. (0 ‘quv qo’llanma). — Т.: «BOOK TRADE KO» nashriyoti, 2022.—264 bet.

Date: 25th April-2025



Z. Freyd zo'ravonlik va tajovuzkorlikni inson psixikasining ajralmas qismi sifatida tushuntirib, yoritib bergen. U psixoanaliz asoschisi bo'lib, inson ongi va ongsizligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, tajovuz va zo'ravonlikni biologik va psixologik jarayonlar bilan izohlashga harakat qilgan. Uning qarashlari psixologiya, sotsiologiya va kriminologiyada zo'ravonlik sabablari bo'yicha ko'plab tadqiqotlarga turtki bergen.

Z. Freydning "Psixonalistik nazariyasi" da Zo'ravonlikni insonning tug'ma instinktiv tendentsiyalarini jamiyatning qadriyatlari, ideallari va me'yorlari talablariga moslashtira olmasligi yoki tajovuzkor, ibridoiy va hissiy tendentsiyalarini axloqiy, ma'naviy va diniy jihatdan maqbul bo'lган faoliyat bilan almashdirib, sublimatsiya yoki yuksalish jarayonini amalga oshira olmasligi bilan bog'laydi. Bunda, superego ham zaif bo'lishi mumkin, bu esa istaklar va instinktiv moyilliklarning zo'ravon xatti-harakatlar orqali qoniqishni qidirishga olib keladi.

Z. Freyd shuningdek, xulq-atvor motivlari umumiyligi biologik energiyadan kelib chiqadi, deb hisoblaydi, bu esa konstruktiv (hayot drayvlari) va halokatli (o'lim drayvlari) bo'linadi. O'lim drayvlari tajovuzkor va zo'ravon impulslar shaklida o'zini namoyon qiladi. Bu impulslar o'ldirish, nafrat va tajovuz shaklida bo'lishi mumkin¹³ degan fikrni ilgari surgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan olimlar zo'ravonlik haqida va uning kelib chiqish yo'nalishlari, sabablari bo'yicha o'z fikrlarini bildirgan va yaratgan nazariyalar bilan izohlab, tushuntirib bergen.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki o'smirlarga nisbatan zo'ravonlik barcha mamlakatlarda va har bir davrda dolzarb sanalgan. Uni oldini olish bo'yicha psixolog, sotsiolog va yana ko'plab olimlar izlanishlar olib borgan hamda nazariyalarida izohlab bergen. Zo'ravonlik masalasi shu boisdan muhim va dolzarbdir. O'smir yoshidagi bola zo'ravonlik qurbaniga aylansa, hayotdan, yaqinlaridan, o'z kelajagidan nafratlanadi va o'zi ham o'ziga nisbatan zaiflarga zo'ravonliklarni amalga oshirishi mumkin. Qolavarsa, ruhiy tushkunlikka tushib stress va dipressiya kabi holatlarni boshidan o'tkazishi, hayotga moslashuvchanlik qobiliyatini o'zlashtira olmay qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun zo'ravonlikka nisbatan kurashish va oldini olish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.«Қуръони Карим» маъноларининг таржима ва тафсири. Тошкент ислом университети" нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2004 й. Таржима ва тафсир муаллифи: Абдулазиз Мансур.
- 2.Émile Durkheim. "The Rules of Sociological Method" 8th edition, trans. Sarah A.Solovay and John M. Mueller, ed. George E. G.fatlin (1938, 1964 edition), pp.13.
- 3.Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия : Изучение влияния воспитания и семейных отношений / Альберт Бандура, Ричард Уолтерс; Пер. с англ. Ю. Брянцевой, Б. Красовского. — М. : Апрель Пресс : ЭКСМО-Пресс, 2000.— 509 с. (Психология. XX век.); ISBN 5-04-004214-0

¹³ Фрейд, Зигмунд. «Я и Оно». Перевод Джоан Ривьер, 1927 год.

Date: 25th April-2025

4. Мerton Р. Социальная структура и аномия //Социология преступности (Современные буржуазные теории).Пер. с фр. Е.А. Самарской. — Москва: Прогресс, 1966. — С. 299-313.
5. N.M.Latipova, X.O.Ziyayeva Zo‘ravonlikka uchragan ayollar va bolalar bilan ijtimoiy ish profllaktikasi. (0 ‘quv qo‘llanma). — T.: «BOOK TRADE KO» nashriyoti, 2022. — 264 bet.
6. Фрейд, Зигмунд. «Я и Оно». Перевод Джоан Ривьер, 1927 год.